



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

N.M.Sharipova

Termiz davlat universiteti "Buxgalteriya hisobi"

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

E-mail: mansurovnaa02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17855464>

Annotatsiya

Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oid ma'lumotlar beriladi. Shu bilan bir qatorda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini foydalanish imkoniyatlari yoritiladi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining qo'llanishi, shuningdek, korxonalar miqyosida foydalanishning samaradorligi va kamchilik jihatlari amaliy misollarda izohlab beriladi.

Kalit so'zlar. MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari), MHXS ni O'zbekiston korxonalarida qulayliklari, foydalanuvchilar va aksidorlar, MHXSQ (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha qo'mita).

Аннотация


В данной статье представлена информация о международных стандартах финансовой отчетности. Кроме того, освещаются возможности использования международных стандартов финансовой отчетности, на практических примерах поясняется применение международных стандартов финансовой отчетности, а также эффективность и недостатки их использования в масштабах предприятий.

Ключевые слова. MHXS (Международные стандарты финансовой отчетности), удобство MHXS для предприятий Узбекистана, пользователей и заинтересованных сторон, MHKSQ (Комитет по международным стандартам финансовой отчетности).

Abstract

This article provides information about international financial reporting standards. In addition, the possibilities of using international financial reporting standards are highlighted, practical examples explain the use of international financial reporting standards, as well as the effectiveness and disadvantages of their use on an enterprise scale.

Key words. MHXS (International Financial Reporting Standards), convenience of MHXS for Uzbekistan enterprises, users and stakeholders, MHKSQ (International Financial Reporting Standards Committee).





Mulkchilik va tarmoq shaklidan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobotni xalqaro standartlari asosida tuzish dolzarb masalardan biri hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar xorijiy investorlarning xalqaro miqyosda investetsiya kiritishlari uchun hisobotlarni tushunushlarida yengilliklarni keltirib chiqaradi. Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari predmeti bo'lib xalqaro standartlar asosida pul ifodasida aks ettirilgan xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbaalari, xo'jalik faoliyati va korxonalar moliyaviy natijalari bo'lib hisoblanadi. Butun jahonda MNXSning qo'llanilishi, - moliyaviy hisobotlarning yaxshilanishida muhim ro'l o'ynaydi. Ulardan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

- ko'pchilik mamlakatlarda hisob va hisobotlarga qo'yiladigan milliy talablar uchun asos bo'lib xizmat qilishi;
- hisob va hisobotga nisbatan o'z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi;
- fond birjalari va tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy hisobotni MNXSga mos ravishda tuzilishini talab qilish;

Yuqoridagilar tufayli moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda yanada kengroq foydalanilmoqda va tan olinmoqda. MNXSni o'z standartlaridek o'zgarishlarsiz ishlatishmoqda.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlarining tan olinishi va ko'proq ishlatilishini isbotlovchi eng muhim voqealardan biri bu - qimmatbaho qog'ozlar va birjalar bo'yicha Kommissiyalarning xalqaro tashkiloti tomonidan xorijiy kotirivkalar uchun MNXS asos qilib olinishidir.

Bugungi kunda MNXS bo'yicha ishlab chiqilgan namunaviy yagona schyotlar rejasining mavjud emas. Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o'tgan har bir korxonalar o'zining hisob siyosatiga muvofiq moliyaviy hisobot xalqaro standartlari bo'yicha ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqishi va tasdiqlashi zarur. Hisob siyosatida moliyaviy hisobot xalqaro standartlari bo'yicha ishchi schyotlar rejasini tasdiqlamaslik hamda undan foydalanmaslik quyidagi muammoli holatlarni keltirib chiqarishiga sabab bo'ladi:

- Qoldiqli aylanma qaydnoma shakllantirib bo'lmasligi;
- MNXS bo'yicha moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni shakllantirib bo'lmasligi;
- Bosh kitob;
- Debitorlik va kreditorlik qarzlari;
- MNXS bo'yicha Foyda va zararlar xamda umumlashgan daromadlar to'g'risidagi hisobotlarni shakllantirib bo'lmasligi kabi muammolar yuzaga keladi.





Xulosa va takliflar

O'zbekiston iqtisodiyotining takomillashayotgan hozirgi sharoitda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ga o'tish – bu faqat texnik masala emas, balki mamlakatimiz korxonalarining xalqaro kapital bozoriga chiqishi, xorijiy investorlar ishonchini qozonishi va raqobatbardoshligini oshirishi uchun strategik zaruratdir. MHXS asosidagi moliyaviy hisobotlar investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun shaffoflik, taqqoslanuvchanlik va ishonchlilikni ta'minlab boradi;

Shu bilan birga, MHXS ga o'tish jarayonida bir qator jiddiy muammolar ham mavjud: malakali kadrlar yetishmasligi, dasturiy ta'minotlarni mutaxassislar to'liq o'zlashtira olmasligi hamda tarjima va talqin bilan bog'liq qiyinchiliklar.

Biroq, ushbu muammolar yechimsiz emas. To'g'ri rejalashtirilgan va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan o'tish strategiyasi natijasida O'zbekiston kichik korxonalari qisqa muddatlarda MHXS ni to'liq va samarali joriy etishi imkoniyatlari paydo bo'ldi.

O'zbekiston korxonalarida MHXS ni muvaffaqiyatli joriy etish va qo'llashni tezlashtirish maqsadida quyidagi amaliy takliflar beramiz:


- ✓ ACCA, va DipIFR sertifikatlarini o'qitish kurslari o'zbek tilida olib boorish imkoniyatlarini kuchaytirish;
- ✓ MHXS bo'yicha namunaviy "Ishchi schyotlar rejasi"ni ishlab chiqish va keng ommaga tatbiq etish;
- ✓ 1C, SAP, Oracle Financials kabi dasturlarni bosqichma-bosqich MHXSga muvofiqlashtirib borish;

Yuqoridagi chora-tadbirlar amalga oshirilganda, 2026-2030-yillarga borib O'zbekiston kichik biznes korxonalari moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga to'liq integratsiyalashgan, xorijiy investorlar uchun ochiq va jozibador bo'lgan iqtisodiy subyektlarga aylanadi.

Shunday qilib, MHXSni keng qo'llash – O'zbekiston iqtisodiyotining global raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim vositalaridan bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qonun (2016) O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahriri). 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. Toshkent sh.
2. Buxgalteriya hisobining milliy standarti № 1 «Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati». (2024 yil 6 avgust, r/r. 3544)
3. Alexander, D., & Nobes, C. (2016). International Financial Reporting and Analysis. Cengage Learning EMEA.
4. Sunder, S. (1997). Theory of Accounting and Control. South-Western College Publishing.





5. Zeff, S. A. (2012). The Evolution of the IASC into the IASB, and the Challenges it Faces. *The Accounting Review*, 87(3), 807-837.
6. Islam, K. E. (2018). International Accounting Standards and the Impact on Financial Transparency in Emerging Markets. *Journal of International Accounting Research*, 17(4), 125-143.
7. Tuychiyev Alisher Jurayevich. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - O'zbekiston uchun qanday afzallik tomonlari mavjud maqolasi. *Alfraganus xalqaro ilmiy jurnali* 27-31b.

